



BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI FANIDAN INTEGRATSIYALASHGAN USULDA DARS ISHLANMALARINI TUZISH KO'NIKMASINI TAKOMILLASHTIRISH

Ziyoqulova Zilola Shuhrat qizi

Termiz davlat universiteti Pedagogika instituti

Ta'lif tarbiya nazariyasi(Boshlang'ich ta'lif) 2- kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ona tili fanidan dars ishlanmalarini tuzish va takomillashtirish bo'yicha ko'nikmalar berish haqida fikrmulohazalar yoritilgan.

Kalit so'zlar. Integratsiya, sifat so'z turkumi, ona tili, ingliz tili, usul va metodlar.

Bugungi kunda o'quvchilarning har tomonlama malakali kadr yoki komil inson bo'lib yetishishida ko'proq ilm va namunali tarbiya berish talab etilmoqda. Shu bois mакtabda o'qitiladigan fanlarni yaxshi o'qitish va uni yanada anglab yetishi uchun fanlarni bir-biriga bog'lab, mavzuga oid metod va usullardan foydalangan holda o'tish muhim ahamiyatga ega. Natijada, o'quvchilar ushbu mavzu haqida har xil ma'lumotga ega bo'ladi. Bu esa fanda ilmiy tilda "integratsiya" deb ataladi. "Integratsiya" so'zi lotincha "integration" – tiklash, to'ldirish, "integer" butun, yaxlit so'zidan kelib chiqqan. O'quvchilarda tez fikrlash, hozirjavoblik, bir tushuncha haqida turli ma'lumotlarga ega bo'lish hamda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalari yaxshi shakllanib boradi. O'qituvchi har bir dars ishlanmasini integratsiyalashgan tarzda tuzib chiqsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Quyida ana shunday dars ishlanmalaridan birini tavsiya etamiz.

Sana: _____

Sinf: 4-sinf

Fan: Ona tili.

Darsning mavzusi: Sifatlarning ma'no turlari.

Darsning maqsadlari:


Ta'limi: O'quvchilarga sifat va uning ma'no turlari haqida tushuncha berish. Sifatlarning ma'no turlariga oid misollar topa olish va ularni qatnashtirib gap tuza olishini mashq qilish. Kommunikativ va ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarni rivojlantirish

Tarbiyaviy: O'quvchilarda ona tilimizga bo'lgan e'tiborni, hurmatni, Vatanga va ona tilimizga bo'lgan tuyg'ularini singdirish, milliy va umummadaniy kompetensiyalarni shakllantirish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarning mustaqil fikrini aniq bayon qila olish malakasini rivojlantirish, ularda bilim, ko'nikmalarni hosil qilish. Nutqiy kompetensiyalarni shakllantirib borish.

Dars turi: Yangi bilim beruvchi

Dars metodi: Aqliy hujum, suhbat,"Nilufar guli" texnologiyasi.





Dars jahozi: Darslik, AKT vositalari, multimedya ilovasi, tarqatma savollar, rag'bat kartochkalari.

Darsning borishi:

Tashkiliy qism:

O'qituvchi: Assalomu aleykum aziz bolajonlarim,

Bilimga kon mehribon, jippi o'g'il qizlarim.

A'lo kayfiyat bilan darsimizni boshlaymiz,

Maqsad sari intilib olg'a qadam tashlaymiz.

Aziz o'quvchilarim hozirgi dars qanday dars:

O'quvchilar: - Ona tili

O'qituvchi:- Sinfda kim navbatchi?

O'quvchi:-

Menman bugun navbatchi,

Har narsadan xabarchi.

Sinfimizda hamma bor,

Va darsimizga tayyor.

O'qituvchi:

Darsga hozir bo'lingiz,

Daftar kitob oling siz.,

O'tilgan mavzularni

Bir-bir yodga olingiz!

2.0'tilgan mavzuni mustahkamlash

O'qituvchi: - Ona tili darsida qanday mavzu o'tgan edik va uyga qanday topshiriq berilgan edi?

1-o'quvchi: Biz ona tili darsida "Sifatlarning ma'no munosabati" degan mavzuni o'tgan edik. Uyga vazifa 192- mashqni shartiga ko'ra bajarib kelish edi.

O'qituvchi:- Hamma vazifani bajarib keldimi? Ofarin, barakalla

Aylanma daftarlarni almashtiramiz. Men daftarlarni tarqatgunimcha, TIL haqidagi she'rlarimizdan namunalar aytamiz. O'quvchilar birin-ketin ona tilimizni madh etuvchi she'rlardan o'qishadi.

Qonga kirgan sut bilan,

O'zbek tilim o'z tilim.

Ardoqlayman yurt bilan,

O'zbek tilim o'z tilim.

Onajonim birgina,

Ko'zlarimda nurgina.

Onajonim o'rgatgan,

O'zbek tilim o'z tilim.

Tunlar alla tingladim,

Kunlar alla tingladim,


O'zligimni angladim,



O'zbek tilim o'z tilim.
 Burro-burro so'zlayman,
 Kelajagim ko'zlayman,
 Istiqbolim iqbolim,
 O'zbek tilim o'z tilim.
 Uy vazifalarini to'g'ri bajargan o'quvchilarga rag'bat kartochkalari tarqatiladi .
 "Nilufar gul" texnologiyasi

Ushbu metodning tartibi quyidagicha: **Nilufar** gulimiz markaziga **Kelishiklar** deb yozib qo'yiladi. Har bir bandiga kelishiklar nomlari yoziladi va gulimiz o'quvchilar tomonidan hosil qilinadi. Ushbu kelishik qo'shimchalar orqali sifat ishtirokida misollar keltiramiz:

Yaxshi(**ga**) yondosh, yomon(**dan**) qoch,
 Gullarni sariq(**qa**) bo'yadim,
 Ko'ylakni xushbichimi(**ni**) tanladim,
 Shirin taom,
 Katta(**ning**) gapiga kir.




O'quvchilar nilufar gulini hosil qilib har bir kelishik qo'shimchalar ishtirokida sifat so'z turkumiga gap tuzadilar. Faol o'quvchilar baholanadi.

Yangi mavzu : **SIFATLARNING MA'NO TURLARI**.

O'qituvchi tomonidan o'quvchilarga mavzu haqida ma'lumot beriladi. Yangi mavzu haqidagi ma'lumot o'quvchilarga yozdiriladi .

Aziz bolajonlar, sifatlarning ma'no turlari quyidagicha:





Rang- tus bildiruvchi sifatlar	Maza-ta'm bildiruvchi sifatlar	Shakl bildiruvchi sifatlar	Hid bildiruvchi sifatlar	Hajm bildiruvchi sifatlar	Xil - xususiyat bildiruvchi sifatlar
Yashil	Shirin	Dumaloq	Xushbo'y	Katta	Odobli

Har bir sifat turiga misollar keltiriladi. Sifatlar ishtirokidagi "So'z o'yini" zanjir usulida o'tkaziladi:

rang tus sifatlarga: sariq, havo rang

maza ta'm bildiruvchi sifatlarga: achchiq , nordon

shakl bildiruvchi sifatlarga: keng, tor.... O'yin shu tarzda davom ettiriladi .

Darslik bilan ishslash . O'quvchilarga bajariladigan mashq sharti e'lon o'qib eshittiriladi va mashq asosida chizilgan chizma doskada ilib qo'yiladi .



Sifatlarning tagiga chizing.

Namuna: meva nomi: olma , shakli: dumaloq, ma'zasi: shirin, hidi: xushbo'y....

Mashqda; uzum, olma , anor, nok, behi , o'rrik rasmlari keltirilgan bularning har birini o'quvchilar sinf taxtasida birin ketin yozadilar mashqni bajargan o'quvchilar rag'batlantirib boriladi

NAMUNA :

Meva nomi	Ranggi	Shakli	Maza-ta'mi	Hidi
Olma	Qizil	Dumaloq	Shirin	Xushbo'y

Mashqni daftarda bajargan o'quvchilar baholanadilar.

Dam olish daqiqasi :

Oyoqlarim dupur-dupur,

Turgan joyda chopadi.

Barmoqlarim esa doim,

Sanashdan charchamaydi

Mavzuni mustahkamlash: 197-mashq.O'qing. Sifatlarning ma'no turlariga misollar topib yozing. Mashq sinf taxtasida va daftarlarda bajariladi .

Rang tus bildiruvchi sifatlar: oppoq.....


Maza ta'm bildiruvchi sifatlar: nordon

Shakl bildiruvchi sifatlar: to'rtburchak

Hajm bildiruvchi sifatlar: bepoyon

Hid bildiruvchi sifatlar: yoqimsiz


Xil xususiyat bildiruvchi sifatlar: aqlii.....





Aziz bolajonlar, sifat so'z turkumiga oid so'zlarni ingliz tili va rus tilida tarjima qilamiz.

qizil	красный	red
shirin	сладкий	sweet
mehribon	добрый	kind
baland	высокий	high
ko'k	синие	blue



Aql charxi metodi: Rasmda tasvirlangan narsalarga mos rang bildiruvchi sifatlarni topib, so'zlarni yozish.

Mashqni o'quvchilar ko'rgazmali qurollar va rasmlar orqali ko'rsatib husnixat qoidalariga amal qilgan hoda doskaga yozib bajaradilar.


Darsni yakunlash va baholash: darsda eng faol o'quvchilar turli nominatsiyalar asosida baholanadi ya'ni:

- Eng faol o'quvchi
- Intiluvchan o'quvchi
- Eng a'luchi o'quvchi
- Tirishqoq o'quvchi
- Eng harakatchan o'quvchi

O'tilgan mavzu o'quvchilar bilan xulosalanib umumlashtiriladi

Uyga vazifa: 198- mashq. Sifatlarni ma'nosiga ko'ra guruhlab yozing.

Xulosa o'rnila shuni ta'kidlash kerakki, integratsiya ya'ni, fanlararo bog'liqlik yaxshi natija beradi. Ayniqsa, sifatga oid so'zlarni rus tili, ingliz tilida tarjima qilgan holda aytib o'tilishi yanada esda qolarli bo'ladi. Umuman olganda, hamma darsimiz ham boshqa fanlar bilan aloqadorlikda o'tadi. Hozirgi kunda, ayniqsa, integratsiyasiz darslarni tashkil etib bo'lmaydi. Negaki, unib o'sib kelayotgan yosh avlodni tillarni yaxshi biladigan qilib tarbiyalash, tillarni o'rganishga qiziqish uyg'otish bu o'quvchilarning vazifasi hisoblanadi.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. K.Qosimova, S.Matchonov. "Ona tili o'qitish metodikasi" Toshkent «NOSIR» nashriyoti. 2009.
2. Mavlonova R.A. va boshqa "Boshlang'ich ta'linda pedagogika, innovatsiya, integratsiya", -T., G.G'ulom nashriyoti 2013-yil, 210-b.
3. Bobomurodova A.Y. Ona tili ta'limi jarayonida o'yin-topshiriqlaridan foydalanish. Ped.fan.nom. diss. -Buxoro: 1996. -145b.
4. G'ulomova X., Yo'ldosheva SH., Shodmonqulova D., Ikromova A. 4-sinfda ona tili darslari. -T.: O'qituvchi, 2018.

